

**MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISH
TIZIMI TARAQQIYOTINING TARIXIY BOSQICHLARI: INSTITUTSIONAL
TRANSFORMATSIYA, SIYOSAT VA JAMIYAT SALOMATLIGI (1991–2025)**

Narimanov Ibrohimbek Ikromjon o‘g‘li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17574687>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishgach tibbiyot sohasida amalga oshirilgan islohotlar, ularning institutsional jihatlar va jamiyat salomatligiga bo‘lgan ta‘siri tahlil qilinadi. 1991–2025 yillar oralig‘idagi o‘zgarishlar 4 bosqichda o‘rganiladi.

Maqola rasmiy hujjatlarga, statistik ma‘lumotlarga va ilmiy adabiyotlarga asoslangan.

Kalit so‘zlar: tibbiyot tizimi, institutsional o‘zgarish, sog‘liq siyosati, jamiyat salomatligi, mustaqillik.

**HISTORICAL STAGES OF DEVELOPMENT OF THE MEDICAL SERVICE SYSTEM
IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE: INSTITUTIONAL
TRANSFORMATION, POLICY AND PUBLIC HEALTH (1991–2025)**

Abstract. This article analyzes the reforms implemented in the medical sector after Uzbekistan gained independence, their institutional aspects and impact on public health. Changes in the period 1991–2025 are studied in 4 stages. The article is based on official documents, statistical data and scientific literature.

Keywords: medical system, institutional transformation, health policy, public health, independence.

**ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО
ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ:
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ, ПОЛИТИКА И
ОБЩЕСТВЕННОЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЕ (1991–2025 ГГ.)**

Аннотация. В статье анализируются реформы, проведенные в сфере здравоохранения после обретения Узбекистаном независимости, их институциональные аспекты и влияние на общественное здравоохранение. Изменения в период 1991–2025 гг. рассматриваются в четыре этапа. Статья основана на официальных документах, статистических данных и научной литературе.

Ключевые слова: медицинская система, институциональная трансформация, политика здравоохранения, общественное здравоохранение, независимость

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yilda mustaqillikka erishgach, sovet davridagi sog‘liqni saqlash tizimi yangi sharoitda ishlashni boshladi. Bu tizim avvaldan ham mukammal emas edi, ammo umumiy xizmat ko‘rsatish darajasi yuqori bo‘lgan. Mustaqillikdan keyin esa davlat moliyasi tibbiyot sohasiga yetarli darajada ajratila olmadi. Natijada, tibbiyot xizmati ko‘rsatish tizimi murakkab bosqichlardan o‘tdi. Va bu maqolada ushbu o‘zgarishlar 4 tarixiy bosqichda tahlil qilinadi.

1-bosqich (1991–2000): Sovet tizimining buzilishi va yangi izlanishlar

1991–1995 yillar oralig‘ida O‘zbekiston tibbiyotiga ajratiladigan byudjet mablag‘lari 40% ga kamaydi (O‘zbekiston Statistika qo‘mitasi, 2001). Shifoxonalarda dori vositalari yetishmasligi, shifokorlar oyligining pasayishi kuzatildi. 1997-yilda “Sog‘liqni saqlash to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi, lekin u amalda mukammal ishlamadi.

Institutsional jihatdan, 1994-yilda Sogʻliqni saqlash vazirligi qayta tashkil etildi, ammo bu faqat nom oʻzgarishi boʻlib qoldi. Bu davrda tibbiyot xizmati koʻrsatish darajasi 30–40% ga pasaygan holda bolib qolaverdi.

2-bosqich (2000–2010): Xususiy sektor oʻsishi va nazorat muammolari

2000-yillarda xususiy tibbiyot muassasalari ochila boshladi. 2005-yilga kelib respublika boʻyicha 450 dan ortiq xususiy shifoxona roʻyxatdan oʻtgan (Oʻzbekiston SSV, 2006). Bular asosan diagnostika, stomatologiya va kosmetologiya xizmatlariga ixtisoslashgan edi. Biroq bu xizmatlar narxi baland boʻlgani uchun, aholining kop qismi bunday sharoitni kotarolmasdi.

Davlat 2003-yilda “Sogʻlom avlod” dasturini boshladi. Bu dastur bolalarning sogʻligini nazorat qilish, maktablarda gigiyena va sogʻlom turmush tarzini oʻrgatishga qaratilgan edi.

Ammo bu dastur amaliyotda yetarlicha keng qamrovli boʻlmadi va kamroq foyda berdi.

Shifokorlar soni 1000 nafar aholiiga 260 taga yetgan (2008), ammo bu koʻrsatkich WHO talabidan (280–300) tadan past boʻlib qolaverdi va talablarga javob bermasdi.

3-bosqich (2010–2020): Institutsional islohotlar va yangi dasturlar

2011-yilda “Oilaviy shifoxona” tizimi joriy qilindi. Bu tizim boʻyicha har bir fuqaroga oilaviy shifokor biriktirildi. 2018-yilga kelib Respublika boʻyicha 11 mingga yaqin oilaviy shifoxona qurildi va aholiga xizmat qilishni boshladi (Oʻzbekiston SSV, 2019). Bu tizim bemorlarga doimiy monitoring - tekshiruvlarini oʻtkazish, profilaktik xizmat koʻrsatish imkonini berdi.

Shuningdek, 2017-yilda “Dori-darmon” davlat tshkiloti tashkil etildi. Bu tashkilot dori vositalarini sotib olish, tarqatish va narxlarni nazorat qilish maqsadida yaratilgan. Lekin, 2019-yilda oʻtkazilgan tahlillarga koʻra, dori narxlaridagi farq 8–12% gacha saqlanib qolgandi va bir biridan farq qilar edi. Bu esa narx nazoratining toʻliq amalga oshmaganligini koʻrsatadi.

4-bosqich (2020–2025): Pandemiya va yangi siyosat

2020-yil COVID-19 pandemiyasi butun dunyoda boʻlgani kabi, Oʻzbekistonning ham tibbiyot tizimining zaif tomonlarini koʻrsatdi. Shuning uchun 2020–2022 yillarda yangi tibbiyot markazlari qurildi, shuningdek, Toshkent shahrida 5 ta multifunksional klinika va 12 ta laboratoriya tashkil etildi (SSV, 2022). Bu obyektlar zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan boʻlib, pandemiya davrida muhim rol oʻynadi.

2021-yilda “Ona va bolaga nazorat” dasturi qabul qilindi. Bu dastur homilador ayollarni va 2 yoshgacha boʻlgan bolalarni monitoringdan - tekshiruv oʻtkazishni rejalashtirgan edi. 2023-yilga kelib 95% homilador ayollarni ushbu dastur qamrab olgan edi. Bu esa davlat tomonidan jamiyat salomatligiga boʻlgan eʼtibor oshganini va qilingan oʻzgarishlar ish berganini koʻrsatadi.

Xulosa

1991–2025 yillar oraligʻida Oʻzbekiston tibbiyot tizimi 4 ta asosiy bosqichdan oʻtdi. Har bir bosqichda institutsional oʻzgarishlar, yangi dasturlar va siyosatlar amalga oshirildi. Lekin, ularning samaradorligi joylarda turlicha boʻldi. Davlat siyosati umuman olganda sogʻliqni saqlash sohasiga qaratilgan, ammo amaliyotda shifokorlar yetishmasligi, xususiy va davlat sektorini muvozanatlashtirish, jamiyat salomatligiga boʻlgan yondashuvni oshirish hali ham hozirgi kunning asosiy muammosi boʻlib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi. (2006). *Tibbiyot xizmati koʻrsatish tizimida islohotlar*. Toshkent.

2. O‘zbekiston Statistika qo‘mitasi. (2001). *Sog‘liqni saqlash ko‘rsatkichlari 1991–2000*. Toshkent.
3. O‘zbekiston SSV. (2019). *Oilaviy shifoxona tizimi: natijalar va istiqbollar*.
4. Tibbiyot instituti. (2020). *Dori vositalari narxini tahlili*. Toshkent.
5. O‘zbekiston SSV. (2022). *COVID-19 va tibbiyot tizimi: hisobot*.
6. O‘zbekiston SSV. (2024). *Ona va bolaga nazorat dasturi natijalari*.
7. Abduvaliyev, A. (2021). *O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash siyosati: tarixiy va zamonaviy jihatlar*. *O‘zbekiston tarix jurnali*, 3(45), 12–19.
8. Rahimova, G. (2020). *Institutsional o‘zgarishlar va tibbiyot tizimi*. *Fan va texnologiyalar*, 2(12), 44–48.
9. Karimov, I. (2005). *Sog‘lom avlod – sog‘lom kelajak*. Toshkent: Sharq.
10. WHO Regional Office for Europe. (2018). *Primary health care in Uzbekistan: review and recommendations*.